# Xorazm viloyatidagi gilxomashyodan tiklangan yodgorliklarning elektron ma’lumotlar bazasi yaratildi

Xorazm Ma’mun akademiyasining “Janubiy Orolbo‘yi tarixiy me’moriy yodgorliklarining qurilish mareriallarini sinash va ta’mirlash” laboratoriyasi ilmiy-xodimlari Xorazm viloyatidagi gilxomashyodan tiklangan – 37 ta me’moriy yodgorliklar bo‘yicha 8 ta punktdan iborat (tarixi, arxitekturaviy kompozitsiyasi, tuzilishi, qo‘llanilgan materiallari va obidaning hozirgi holati bo‘yicha) elektron shakldagi ma’lumotlar bazasini yaratdi. Yaratilgan ma’lumotlar bazasi  O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro‘xatdan o‘tkazildi.

Hozirgi kungacha Xorazm viloyatidagi gilxomashyoli  obyektlar uchun hujjatlar, ya’ni, hajmiy-rejalashtirish, muhandislik-geologik sharoitlari va konstruktiv mustahkamlashga oid tavsiyalar va mavjud bo‘lgan barcha paxsadevor me’moriy yodgorliklari bo‘yicha obyektiv ma’lumotlar bo‘lmagan hamda to‘plangan ma’lumotlar  tizimlashtirilmagan.

Mazkur baza gilxomashyodan tiklangan me’moriy yodgorliklar holatini baholash uchun obida ashyolarining eskirishi, yemirilishi va buzilishining oldini olish, ya’ni ularni o‘z vaqtida ta’mirlash, monitoring qilish imkonini beradi.

Gilxomashyoli me’moriy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash ishlarini 30%ga qisqartirishga asos bo‘ladigan mazkur “Ma’lumotlar bazasi”dan O‘zR Madaniy meros agentligining mutassaddilari uchun foydalanish imkoni yaratildi. Shuningdek, keng jamoatchilikning yaratilgan ma’lumotlar bazasidan qadimiy Xorazm me’morchilik tarixiga oid bilimlarini kengaytirish va boyitish bilan birga tarix va turizm yo‘nalishlari bo‘yicha fanlarni o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin.

**Ma’lumot o‘rnida:** *Xorazm qadimdan davlatchilik, fan va madaniyat, sivilizatsiya markazlaridan biri bo‘lganligini, aynan vohada qadimdan paxsadevor bino va inshootlari shaharsozlik madaniyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. Xorazm vohasida davlatchilikning shakllanishi va shaharsozlikni rivojlanishdagi gilxomashyoli qal’alarning ahamiyati 2700 yillik tarixga ega va u “Avesto” kitobida  ham keltirilgan. Hozirgi eng zamonaviy qurilish va me’morchilikning nazariy va amaliy poydevori shu davrda*

*qo‘yilgan. Ulardan shu davrgacha vohada saqlanib qolganlari 100dan ortiqdir.*